


## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 553,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 118,4 mln. AQSh dollariga yoki 17,6 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)



Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**SAMARQAND  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2020-yil  
yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari, ulushi,  
% da)**

TSA da eksport hajmi 122,2 mln. AQSh dollariga (15,0 % ga kamaydi) va import hajmi 430,9 mln. AQSh dollariga (18,4 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida - 308,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	109,1	9,2	99,9	19,7
Rossiya Federatsiyasi	87,9	24,6	63,3	15,9
Qozog`iston	58,6	19,2	39,4	10,6
Turkiya	50,8	11,9	38,9	9,2
Yaponiya	37,2	0,1	37,1	6,7
Sloveniya	13,9	0,0	13,9	2,5
Tojikiston	12,8	12,2	0,6	2,3
Latviya	12,6	0,4	12,2	2,3
Ukraina	11,7	2,6	9,1	2,1
Germaniya	11,7	0,6	11,1	2,1

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 74 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (19,7 %), Rossiya Federatsiyasida (15,9 %), Qozog`istonda (10,6 %), Turkiyada (9,2 %), Yaponiyada (6,7 %), Sloveniyada (2,5 %) va Tojikistonda (2,3 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Tojikiston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg`iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (11,6 mln. AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (6,1 mln. AQSh dollari), Belarus Respublikasi (0,6 mln. AQSh dollari), Afg`oniston (5,2 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (4,4 mln. AQSh dollari) va Iroq (3,0 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 24 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>76,7</b>	<b>122,1</b>	<b>109,1</b>
Eksport	5,1	8,7	9,2
Import	71,6	113,4	99,9
Saldo	-66,5	-104,7	-90,7
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>83,6</b>	<b>107,3</b>	<b>87,9</b>
Eksport	24,6	39,2	24,6
Import	59,0	68,1	63,3
Saldo	-34,4	-28,9	-38,7
<b>Qozog`iston</b>	<b>69,0</b>	<b>77,4</b>	<b>58,6</b>
Eksport	16,5	16,7	19,2
Import	52,5	60,7	39,4
Saldo	-36,0	-44,0	-20,2
<b>Turkiya</b>	<b>64,5</b>	<b>78,4</b>	<b>50,8</b>
Eksport	10,5	13,6	11,9
Import	54,0	64,8	38,9
Saldo	-43,5	-51,2	-27,0
<b>Yaponiya</b>	<b>19,8</b>	<b>30,2</b>	<b>37,2</b>
Eksport	0,0	0,5	0,1
Import	19,8	29,7	37,1
Saldo	-19,8	-29,2	-37,0
<b>Sloveniya</b>	<b>10,0</b>	<b>5,9</b>	<b>13,9</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	10,0	5,9	13,9
Saldo	-10,0	-5,9	-13,9
<b>Tojikiston</b>	<b>3,6</b>	<b>5,7</b>	<b>12,8</b>
Eksport	3,4	4,8	12,2
Import	0,2	0,9	0,6
Saldo	3,2	3,9	11,6

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Latviya</b>	<b>11,8</b>	<b>23,4</b>	<b>12,6</b>
Eksport	1,6	0,9	0,5
Import	10,2	22,5	12,1
Saldo	-8,6	-21,6	-11,6
<b>Ukraina</b>	<b>9,3</b>	<b>10,9</b>	<b>11,7</b>
Eksport	2,0	4,2	2,6
Import	7,3	6,7	9,1
Saldo	-5,3	-2,5	-6,5
<b>Germaniya</b>	<b>37,4</b>	<b>38,6</b>	<b>11,7</b>
Eksport	0,8	1,3	0,6
Import	36,6	37,3	11,1
Saldo	-35,8	-36,0	-10,5
<b>Vengriya</b>	<b>5,3</b>	<b>4,0</b>	<b>10,8</b>
Eksport	0,0	0,1	0,1
Import	5,3	3,9	10,7
Saldo	-5,3	-3,8	-10,6
<b>Litva</b>	<b>6,2</b>	<b>9,3</b>	<b>10,6</b>
Eksport	0,0	0,9	0,9
Import	6,2	8,4	9,7
Saldo	-6,2	-7,5	-8,8
<b>Eron</b>	<b>6,1</b>	<b>13,5</b>	<b>9,6</b>
Eksport	2,7	5,7	1,0
Import	3,4	7,8	8,6
Saldo	-0,7	-2,1	-7,6
<b>Gruziya</b>	<b>2,5</b>	<b>3,0</b>	<b>8,8</b>
Eksport	1,2	1,4	1,7
Import	1,3	1,6	7,1
Saldo	-0,1	-0,2	5,4

Respublikamizda tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-may oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 36,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018-yilga nisbatan ulushi 2,2 % ga oshgan.

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si ham 2020-yil yanvar-may oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan kamaydi (20,6 % ga) va jami TSA dagi ulushi 64,0 % ni tashkil etdi.

## SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlari soni 393 tani tashkil etib, ular tomonidan 122,2 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 96,7 % ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va trik hayvonlar (47,5 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (18,0 %), turli xil tayyor buyumlar (12,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST  
BO`YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may,  
ulushi, % da)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>122,2</b>	<b>77,1</b>	<b>45,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	58,0	34,5	23,5	47,5	44,7	52,1
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,5	0,1	0,5	0,7	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	5,2	2,4	2,7	4,2	3,2	6,1
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	3,2	2,2	1,1	2,6	2,8	2,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	1,2	1,1	0,1	1,0	1,4	0,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	22,0	9,5	12,5	18,0	12,3	27,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	13,2	11,0	2,2	10,8	14,3	4,9
Turli xil tayyor buyumlar	14,7	13,0	1,6	12,0	16,9	3,6
Xizmatlar	4,1	2,8	1,2	3,3	3,7	2,7



MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan turli xil tayyor buyumlar hamda mashinalar va transport asbob-uskunalari xissasiga to`g`ri kelmoqda.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2020-yil  
yanvar-may)**

XSST tarkibi	2019 yilning yanvar-mayga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>85,0</b>	<b>96,4</b>	<b>70,7</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	75,8	86,8	64,0
Ichimliklar va tamaki	60,9	57,6	133,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	72,7	51,8	113,7
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	53,2 b.	-	17,5 b.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	116,4	177,1	32,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	117,9	84,6	168,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	115,0	173,7	43,0
Turli xil tayyor buyumlar	120,9	123,0	106,3
Xizmatlar	31,5	60,3	15,1

2020-yil yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2018-yilning yanvar-mayiga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.

**EKSPORT  
TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
% da)**

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	43,6	53,2	47,5
Ichimliklar va tamaki	0,8	0,7	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,3	5,0	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	2,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	2,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,0	0,7	1,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	18,9	13,0	18,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	8,0	8,0	10,8
Turli xil tayyor buyumlar	9,7	8,4	12,0
Xizmatlar	10,7	9,0	3,3

**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020-y.  
yanvar-may)**


XSST bo`limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	45,6	64,7
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	6,3	2,6 b.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	2,0	135,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,9	2,2 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,2	99,1
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,6	59,3
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,02	5,7 b.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari</b>		
To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3,7	102,7
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	1,0	41,1
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,3	34,8
<b>Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar</b>		
O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3,2	53,2 b.
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,4	6,7 b.
O`g`tlar	0,2	35,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,1	9,4 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	292,9 b.

**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020 yil  
yanvar-may)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	17,8	123,1
Metallidan tayyorlangan buyumlar	1,9	119,5
Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1,2	118,6
Rangli metallar	0,8	80,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	12,0	116,4
Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar	0,5	2,2 b.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	0,3	38,1
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,2	1 886,1
Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari	0,2	126,2
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	10,0	99,2
Poyabzal	3,6	192,5
Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va maxkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,8	-
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	142,8
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	2,8	57,2
Safarlar (turizm)	0,6	11,7
Boshqa biznes xizmatlari	0,6	55,6

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-maydagi 33,7 % dan 2020-yil yanvar-mayda 36,0 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 64,0 % ni tashkil etdi.

MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)



2020-yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 20,1 % i), Qozog'iston (15,7 %), Tojikiston (10,0 %), Turkiya (9,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,5 %), Qirg'iz Respublikasi (5,9 %) va Afg'oniston (4,3 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 73,2 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yilning mos davriga nisbatan 61 davlatdan 57 davlatga kamaydi.

VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020-yil  
yanvar-may,  
% da)



SAMARQAND  
VILOYATINING  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI  
HAJMI VA  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar-may)

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Rossiya Federatsiyasi	39,2	24,6	159,7	62,6	1	1
Qozog'iston	16,6	19,2	100,8	115,1	2	2
Tojikiston	4,8	12,2	141,6	2,6 b.	8	3
Turkiya	13,6	11,9	128,9	87,6	3	4
Xitoy Xalq Respublikasi	8,7	9,2	172,2	104,9	4	5
Qirg'iz Respublikasi	4,2	7,2	122,2	173,5	11	6
Afg'oniston	8,7	5,3	119,0	60,5	5	7
Ozarbayjon	4,3	4,5	158,8	105,4	9	8
Belarus Respublikasi	3,8	3,9	138,5	102,9	12	9
Iroq	3,1	3,0	2,4 b.	95,9	13	10
Ukraina	4,2	2,6	2,1 b.	62,3	10	11
Turkmaniston	2,4	2,6	3,5 b.	105,6	14	12
Misr	0,0	2,1	-	-	63	13
Singapur	1,6	2,0	34,0	127,4	16	14
Gruziya	1,4	1,7	111,2	124,2	18	15
BAA	1,2	1,5	45,4	125,1	20	16
AQSH	1,4	1,4	186,0	100,4	17	17
Eron	5,7	1,0	2,1 b.	17,2	7	18
Litva	0,8	0,9	-	108,3	23	19
Polsha	2,1	0,7	9,7 b.	35,4	15	20

**VILOYATNING  
AYRIM  
DAVLATLAR  
BILAN EKSPORT  
TARKIBI  
(2020 yil  
yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollarida)**

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		Qozog`iston		Tojikiston		Turkiya	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Jami eksport</b>	<b>39,2</b>	<b>24,6</b>	<b>16,6</b>	<b>19,2</b>	<b>4,8</b>	<b>12,2</b>	<b>13,6</b>	<b>11,9</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19,7	9,9	6,0	6,6	3,0	8,2	9,0	4,7
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,4	0,2	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	1,7	1,0	1,4	0,7	0,0	0,0	0,1	0,1
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	1,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,5	0,0
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,3	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	0,0	0,0	0,4	0,5	0,2	0,4	0,0	0,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	2,2	2,2	2,6	2,0	0,7	1,1	3,2	5,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,6	0,1	4,9	7,7	0,5	0,5	0,2	1,6
Turli xil tayyor buyumlar	8,5	8,2	1,2	1,5	0,4	0,7	0,0	0,2
Xizmatlar	4,6	2,8	0,0	0,0	0,0	0,0	0,6	0,4

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 43,5 mln. dollar qiymatli 66,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 17,2 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 28,4 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 15,5 mln. AQSh dollariga teng 43,0 ming tonna sabzavot, shuningdek, 11,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 10,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI  
(2020 yil  
yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (19,3 %), Qozog`iston (13,0 %), Xitoy xalq Respublikasi (12,9 %) va Turkiya (9,3 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.



Davlatlar	2019-yil			2020-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Rossiya Federatsiyasi	12,4	9,5	15,6	9,2	8,4	19,3
Qozog'iston	15,8	6,2	10,2	13,4	5,6	13,0
XXR	9,4	7,5	12,3	6,6	5,6	12,9
Turkiya	27,3	8,7	14,4	3,4	4,0	9,3
Belarus Respublikasi	3,9	3,3	5,5	3,9	3,7	8,4
Iroq	7,9	2,6	4,2	10,8	2,3	5,4
Ukraina	9,3	3,6	5,9	2,8	2,2	5,0
Ozərbayjon	2,0	1,9	3,2	1,4	1,7	3,8
Gruziya	5,2	1,3	2,2	2,0	1,6	3,6
Turkmaniston	9,4	1,7	2,8	6,2	1,5	3,4
AQSH	0,5	1,3	2,1	0,5	1,2	2,8
Eron	6,1	4,5	7,3	1,0	0,8	1,7
BAA	0,6	0,4	0,7	0,5	0,7	1,7
Germaniya	0,4	1,3	2,1	0,2	0,6	1,4
Afg'oniston	0,4	0,3	0,5	1,9	0,5	1,1
Latviya	1,3	0,9	1,5	0,4	0,4	1,0
Boshqa davlatlar	9,8	5,7	9,4	2,3	2,7	6,3

\*-qiymat ifodasidan

**TO`QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI**

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 29,4 mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 24,1 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 12,7 % ga o`tdi.

Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (51,3 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (25,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 326 turdagi to`qimachilik mahsulotlari dunyoning 52 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO`QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)**

Tovar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	8,6	10,0	10,0
Gilamlar	11,1	10,9	7,5
Paxtadan yigirilgan ip	1,7	2,3	6,5
Ipak va ipak mahsulotlari	2,0	2,2	2,6
Paxtadan gazlamalar	0,1	0,0	2,2
Boshqa to`qimachilik mahsulotlari	0,5	0,7	0,8

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (10,3 mln. AQSh dollari – 34,8 %), Turkiya (5,0 mln. AQSh dollari – 16,8 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (3,1 mln. AQSh dollari – 10,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Rossiya Federatsiyasi	9,8	10,8	10,3
Turkiya	1,5	2,2	5,0
XXR	1,5	1,0	3,1
Qirg'iz Respublikasi	2,6	3,0	2,4
Misr	0,0	0,0	2,1
Ozarbajon	1,3	2,0	1,9
Qozog'iston	2,4	1,5	1,3
Afg'oniston	2,3	1,8	1,0
Polsha	0,2	1,1	0,5
Tojikiston	0,6	0,3	0,4
Vetnam	0,0	0,0	0,4
Singapur	0,0	0,0	0,3
Eron	0,8	1,2	0,2
Turkmaniston	0,0	0,1	0,2
Belarus Respublikasi	0,1	0,0	0,1
Ukraina	0,1	0,2	0,1
Izroil	0,2	0,1	0,1
Moldova	0,0	0,0	0,1
Hindiston	0,0	0,0	0,1
AQSH	0,2	0,0	0,1

DAVLATLAR  
KESIMIDA  
TO`QIMACHI-  
LIK MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)

## SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-may)

2020-yil yanvar-may oylarida import hajmi 430,9 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 81,6 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (36,3 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (16,5 %) hamda kimyoviy vositalar (13,3 %) hisobiga to`g`ri keldi.



XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
IMPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may,  
ulushi, % da)

 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 6,8 %	 Ichimliklar va tamaki - 0,0 %
 Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari - 5,3 %	 Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar - 1,4 %
 Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar - 1,0 %	 Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar - 28,2 %
 Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 19,4 %	 Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 34,8 %
 Turli xil tayyor buyumlar - 3,0 %	 Xizmatlar - 0,2 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2020-yilning yanvar-mayida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 96,9 mln. AQSh dollariga kamaydi va 430,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORT TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>430,9</b>	<b>121,8</b>	<b>309,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29,4	18,2	11,2	6,8	14,9	3,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	22,9	14,8	8,1	5,3	12,1	2,6
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	5,9	5,7	0,2	1,4	4,7	0,1
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	4,5	4,1	0,4	1,0	3,3	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	121,4	26,4	95,0	28,2	21,7	30,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	83,6	43,2	40,4	19,4	35,5	13,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	149,8	7,7	142,1	34,8	6,3	46,0
Turli xil tayyor buyumlar	12,7	1,6	11,1	3,0	1,3	3,6
Xizmatlar	0,8	0,0	0,7	0,2	0,0	0,2

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (35,5 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (21,7 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari (12,1 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (46,0 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (30,7 %), hissasiga to`g`ri keladi.

MDH VA  
BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2020-yil  
yanvar-may)

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-mayga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>81,6</b>	<b>83,9</b>	<b>80,8</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	62,1	66,4	56,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	60,1	53,4	78,1
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	177,3	191,5	52,2
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	89,5	95,2	55,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	146,0	138,9	148,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	75,5	86,1	66,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	68,1	63,7	68,3
Turli xil tayyor buyumlar	70,4	106,8	67,0
Xizmatlar	35,0	7,6 b.	33,2

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar ulushi 15,4 % dan 28,2 % gacha o`sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 41,1 % dan 34,8 % ga, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari importining ulushi esa 8,3 % dan 5,3 % ga kamaydi.

**IMPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(2020-yil  
yanvar-may,  
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,1	9,0	6,8
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	8,3	7,2	5,3
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	0,4	0,6	1,4
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	3,3	1,0	1,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	15,4	15,8	28,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	20,4	21,0	19,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	41,1	41,7	34,8
Turli xil tayyor buyumlar	1,6	3,4	3,0
Xizmatlar	0,3	0,4	0,2

**XST BO`YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may  
2019-yil  
yanvar-mayiga  
nisbatan)**

Mahsulot nomi	Min. AQSh dollari	o`zgarish sura'tlari, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	12,5	88,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	9,2	46,7
Sabzavotlar va mevalar	2,2	59,6
Trik hayvonlar	2,0	56,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,0	67,3
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	7,9	59,6
Probka va yog`och-taxtalar	5,9	104,0
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	4,5	53,8
Tabiiy kauchuk	2,3	198,2
O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1,3	15,1
<b>Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	5,7	176,5
Ko`mir, koks va briketlar	0,2	2,1 b.

**XSTT BO`YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may  
2019- yil yanvar-  
mayga  
nisbatan)**


Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar		
O`simlik moylari va yog`lari	4,2	89,9
Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari	0,3	83,4
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	89,1	195,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	16,9	95,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5,1	85,7
Bo`yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo`yoqlar	3,4	96,8
Organik kimyo moddalari	2,4	65,4
<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
Cho`yan va po`lat	44,8	78,5
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	15,7	100,7
Rezina buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7,2	43,0
Metalldan tayyorlangan buyumlar	5,6	119,1
Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3,0	64,7
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	59,9	70,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	45,6	54,7
Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari	32,6	80,6
Metallarni qayta ishlash mashinalari	5,3	161,5
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	4,7	101,5
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5,6	44,9
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2,8	140,1
Har xil tayyor buyumlar	2,2	101,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o`xshash mahsulotlar	1,0	6,3 b.
Poyabzal	0,7	80,1
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	0,7	77,1



Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga shakar va shakar xomashyosi (89,0 % ga pasaygan), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (53,3 % ga), hayvonlar uchun ozuqalar (11,4 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, organik kimyo moddalari (34,6 %) hamda birlamchi shakldagi plastmassalar (4,7 %) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLAT-  
LARDAN  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulush % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 20,1 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (19,9 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDAGI  
YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
(yanvar-may)**

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	113,4	100,0	158,3	88,2	1	1
Rossiya Federatsiyasi	68,0	63,3	115,3	93,0	2	2
Qozog`iston	60,7	39,4	115,7	64,9	4	3
Turkiya	64,9	38,9	120,3	60,0	3	4
Yaponiya	29,7	37,1	150,2	124,8	6	5
Sloveniya	5,9	13,9	59,2	2,3 b.	15	6
Latviya	22,4	12,1	2,2 b.	54,0	7	7
Germaniya	37,3	11,1	102,0	29,6	5	8
Vengriya	3,9	10,7	72,6	2,8 b.	21	9
Litva	8,4	9,7	136,0	114,8	10	10
Ukraina	6,7	9,1	91,8	136,6	13	11
Eron	7,8	8,6	2,3 b.	109,4	11	12
Gruziya	1,6	7,1	125,2	4,5 b.	28	13
Hindiston	9,3	6,2	118,0	66,2	9	14
Gollandiya	6,8	5,9	95,6	86,6	12	15
Polsha	5,3	5,6	157,5	105,9	16	16
Koreya Respublikasi	20,4	5,6	2,2 b.	27,2	8	17
Turkmaniston	2,8	4,2	138,2	149,7	23	18
Belgiya	2,9	4,2	35,2	143,5	22	19
Avstriya	6,1	4,1	67,2	67,6	14	20


2020-yil yanvar-may oylari yakuni bo'yicha Samarqand viloyati tomonidan 69 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

VILOYAT  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020-yil  
yanvar-may,  
% da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya, Sloveniya va Latviya) jami importning 70,7 % ini tashkil qiladi, bu 304,7 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya va Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

**QURILISH  
MATERIALLARI  
IMPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)**

Qurilish materiallari	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Yog'och va yog'och mahsulotlari	14,0	13,0	9,1
Shisha va shisha buyumlar	1,7	1,1	1,3
Asbest	1,6	8,0	0,6
Sement	0,3	1,3	0,1

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz hamda viloyatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:66-230-45-23